

## CHO'LPOONING "KECHA VA KUNDUZ" ASARIDA QO'LLANGAN MAQOLLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

*Ortikova Nafisa Sharofiddinovna,*

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti talabasi*

*[ortiqovanafisa6@e-mail.com](mailto:ortiqovanafisa6@e-mail.com)*

*Ilmiy rahbar: dotsent Yuldasheva Saodat Azizovna*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Cho'lponning "Kecha va kunduz" asarida qo'llanilgan maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqolada o'zbek xalq maqollarining semantik va sintaktik jihatlari, ularning badiiy asardagi vazifalari hamda milliy tafakkurda o'rni qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra maqollar badiiy asarning mazmunini boyitish bilan birga o'zbek xalqining hayot falsafasi, ijtimoiy munosabatlari va an'anaviy qarashlarini aks ettirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Mazkur maqola tilshunoslar va adabiyotshunoslari uchun ilmiy manba sifatida foydalanishga mo'ljallangan.

**Kalit so'zlar.** Maqollar, lingvokulturologiya, sintaksis, badiiy asar, qiyosiy tahlil, milliy tafakkur, madaniy tafakkur, madaniy qadriyatlar, frazeologiya, semantik tahlil, adabiy tahlil.

## CHO'LPOUN "GECE VE GÜNDÜZ" ESERİNDE KULLANILAN ATASÖZLERİNİN LİNGVOKÜLTÜROLOJİK ÖZELLİKLERİ

*Ortikova Nafisa Sharofiddinovna,*

*Özbekistan-Finlandiya pedagoji enstitüsü öğrencisi*

*Bilimsel danışman: Doç. Dr. Yuldasheva Saodat Azizovna*

**Özet.** Bu makalede, Cho'lpon'un "Gece ve Gündüz" eserinde kullanılan atasözlerinin lingvokültürolojik özellikleri incelenmektedir. Makalede Özbek halk atasözlerinin anlamsal ve sözdizimsel yönleri, sanatsal eserdeki işlevleri ve ulusal düşünmedeki yeri karşılaştırmalı olarak ele alınmaktadır. Araştırma sonuçlarına göre atasözleri, edebi eserin içeriğini zenginleştirmenin yanı sıra, Özbek halkın yaşam felsefesini, sosyal ilişkilerini ve geleneksel bakış açılarını yansitan önemli bir araç olarak hizmet etmektedir. Bu makale, dilbilimciler ve edebiyat araştırmacıları için bilimsel bir kaynak olarak kullanılmak üzere hazırlanmıştır.

**Anahtar kelimeler.** Atasözleri, lingvokültüroloji, sözdizimi, edebi eser, karşılaştırmalı analiz, ulusal düşünce, kültürel düşünce, kültürel değerler, deyimler, anlamsal analiz, edebi analiz.

## LINGUOCULTURAL FEATURES OF PROVERBS USED IN CHO'LPOON'S NOVEL "KECHA VA KUNDUZ"

*Ortikova Nafisa Sharofiddinovna,*

*student of the Uzbekistan-Finland pedagogical institute*

*scientific advisor: Associate professor Yo'ldosheva Saodat Azizovna*

**Annotation.** This article analyzes the linguistic and cultural characteristics of proverbs used in Cho'lpon's novel "Kecha va Kunduz". The study examines the semantic and syntactic aspects of Uzbek folk proverb, their functions in the literary work, and their role in national thinking. The research findings indicate that proverbs not only reflect the artistic essence of a literary work but also serve as an important means of conveying the Uzbek people's philosophy of life, social relations, and traditional views. This article is based on scientific sources from linguists and literary scholars.

**Keywords.** Proverbs, linguistic cultural studies, syntax, literary work, textual analysis, national thinking, analytical thinking, artistic interpretation, phraseology, comparative analysis.

**ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОСЛОВИЦ,  
ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В ПРОИЗВЕДЕНИИ ЧУЛПАНА  
“НОЧЬ И ДЕНЬ”**

*Ortikova Nafisa Sharofiddinovna,  
Студентка Узбекского-Финляндский педагогический института  
Научный руководитель: Юлдошева Саодат Азизовна*

**Аннотация.** В данной статье анализируются лингвокультурологические особенности пословиц, используемых в произведении Чулпана “Ночь и день”. Рассматриваются семантические и синтаксические аспекты узбекских народных пословиц, их функции в художественном произведении, а также их роль в национальном мышлении. Согласно результатам исследования, пословицы не только обогащают содержание художественного произведения, но и служат важным средством отражения философии жизни, социальных отношений и традиционных взглядов узбекского народа. Данная статья предназначена для использованная в качестве научного источника для лингвистов и литературоведов.

**Ключевые слова.** Пословицы, лингвокультурология, синтаксис, художественное произведение, сравнительный анализ, национальное мышление, культурное мышление, культурные ценности, фразеология, семантический анализ, литературный анализ.

**CHO'LTON'UN “GECE VE GÜNDÜZ” ESERİNDE KULLANILAN  
ATASÖZLERİNİN LİNGVOKÜLTÜROLOJİK ÖZELLİKLERİ**

*Ortikova Nafisa Sharofiddinovna,  
Özbekistan-Finlandiya pedagoji enstitüsü öğrencisi  
Bilimsel danışman: Doç. Dr. Yuldosheva Saodat Azizovna*

**Özet.** Bu makalede, Cho'lpon'un "Gece ve Gündüz" eserinde kullanılan atasözlerinin lingvokültürolojik özellikleri incelenmektedir. Makalede Özbek halk atasözlerinin anlamsal ve sözdizimsel yönleri, sanatsal eserdeki işlevleri ve ulusal düşünmede yeri karşılaştırmalı olarak ele alınmaktadır. Araştırma sonuçlarına göre atasözleri, edebi eserin içeriğini zenginleştirmenin yanı sıra, Özbek halkın yaşam felsefesini, sosyal ilişkilerini ve geleneksel bakış açılarını yansitan önemli bir araç olarak hizmet etmektedir. Bu makale, dilbilimciler ve edebiyat araştırmacıları için bilimsel bir kaynak olarak kullanılmak üzere hazırlanmıştır.

**Anahtar kelimeler.** Atasözleri, lingvokültüroloji, sözdizimi, edebi eser, karşılaştırmalı analiz, ulusal düşünce, kültürel düşünce, kültürel değerler, deyimler, anlamsal analiz, edebi analiz.

Tilshunoslikda maqollarni o‘rganish muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki maqollar xalq tafakkurining ko‘zgusi bo‘lib, ularning o‘zaro munosabati va vazifalarini tahlil qilish orqali milliy madaniyat va tafakkur tizimini chuqurroq anglash mumkin. Maqollar faqatgina badiiy vosita emas, balki xalqning hayotiy tajribasi, axloqiy me’yorlari va ijtimoiy munosabatlarni aks ettiruvchi lingvokulturologik birliliklar hisoblanadi.

Cho'lponning "Kecha va kunduz" asarida ishlaytilgan maqollarini lingvokulturologik tahlil qilish orqali ularning milliy tafakkur va madaniy qadriyatlarimizdagi o‘rnini belgilash mumkin. Ushbu maqlolada asarda qo‘llanilgan maqollarning grammatik va semantik xususiyatlari hamda ularning asar mazmuniga qo‘shtan hissasi tahlil qilinadi.

**Maqollarning lingvokulturologik tahlili**

*“Hubbil vatani minal-imon” (Vatanni sevish iymondandir) [15.b]*

Ushbu maql diniy mazmunga ega bo‘lib, milliy vatanparvarlik hissini ifodalaydi. O‘zbek xalqining vatanparvarlik ruhiyatini aks ettiruvchi maqollardan biridir. Asarda so‘fi obrazining Vatangga bo‘lgan bog‘liqligi va uning shahardan tashqariga chiqishni istamasligi ushbu maql

orqali yoritiladi. Bu lingvokulturologik jihatdan o‘zbek xalqining vatanparvarlik qadriyatlarini bilan chambarchas bog‘liqdir.

*“Sanamasdan sakkiz dema”* [22.b.]

Maqol insonni shoshqaloqlikdan tiyishga undaydi va hisob-kitob qilish mumkinligini ta’kidlaydi. Asarda Zebixon otasining ruxsatini kutish kerakligini Saltanatxonga aytib, bu maqol insonning qaror qabul qilishda shoshmaslik muhimligini yoritadi.

*“Kambag‘al -Xudoyimning suygan bandasi”* [36.b.]

Bu maqolda kambag‘allik tushunchasi ijobjiy talqin qilinib, sabr va tavakkal tushunchalari bilan bog‘lanadi. Maqol xalqning diniy e’tiqodi va axloqiy qadriyatlarini ifodalovchi iboradir. Asarda bu maqol Enaxonning qashshoqligidan shikoyati chog‘ida ishlataladi. Bu hol xalq tafakkurida kambag‘allikni sinov sifatida qabul qilish va unga sabr qilish zarurligini ko‘rsatadi.

*“Noumid shayton”* [39.b.]

Umidni yo‘qotish yomon oqibatlarga olib kelishi haqidagi ushbu maqol islomiy tafakkur va xalq falsafasini o‘zida mujassam etadi. Bu maqol orqali o‘z istaklariga yetishish uchun harakat qilishi, hech qachon umidsizlikka tushmasligi kerakligi ifodalanadi. Asarda bu maqol Xolmat va aravakash yigit o‘rtasidagi suhbatda ishlataladi. Aravakash yigit Zebinisoxonning ovozidan hayratga tushib, unga nisbatan ilig‘ his-tuyg‘ulari borligini sezadi. Xolmat esa yigitning hayajonini ko‘rib, uni dalda berish maqsadida “Noumid shayton” maqolini ishlataladi.

*“Olmaa pish og‘zimga tush”* [84.b.]

Ishga harakat qilmasdan natijar kutishning noto‘g‘ri ekanini bildiruvchi maqol bo‘lib, o‘zbek xalqining mehnatsevarlik tamoyillarini aks ettiradi. Bu maqol Cho‘lpon asaridagi qahramonlarning harakterini ochib berishda ham xizmat qiladi. Asarda ushbu maqol O‘lmasjonning ota-onasi o‘rtasidagi bahs chog‘ida qo‘llaniladi. Ona farzandining tinimisiz mehnat qilib charchab ketganidan noliydi va unga yaxshiroq kasb topish zarurligini aytadi. Otasi esa dunyoda oson ish yuqligini, har kim o‘z mehnati bilan ro‘zg‘orini tebratish kerakligini tushuntiradi. Ona esa (olma pish, og‘zimga tush!) maqolini ishlatib, faqat kutish bilan hech narsaga erishib bo‘lmasligini ta’kidlaydi.

*“Echkiga o‘lim, qassobga yog”* [112.b.]

Ushbu maqol aosan ikki tomon o‘rtasidagi manfaatlar qarama-qarshiligidni ifodalaydi. Xalq og‘zaki ijodi namunasi sifatida bu maqol ijtimoiy haqiqatni ko‘rsatish vositasidir. Asarda Qurvonbibi qizining bo‘zaxo‘r va benamoz kishiga berilganidan norozi bo‘lib, bu holatni “Echkiga o‘lim, qassobga yog” maqoli orqali ifodalaydi. Bu esa hayotdagi adolatsizlik va har kimning o‘z manfaatini o‘ylash haqidagi tushunchani aks ettiradi.

*“Kichkina mitti, xon xo‘jani yiqitdi”* [114.b.]

Kichik yoshdaggi insonlar ham donishmand va ta’sirchan bo‘lishi mumkinligi haqidagi tushunchani ifodalaydi. Bu xalqning yoshlarga bo‘lgan ishonchini ko‘rsatadi va adabiyotda qahramonlarning nutqiga tabiiylik bag‘ishlaydi. Asarda bu maqol Zebixonning shaharga tushib kelgan ayollar bilan bog‘liq holatda qo‘llaniladi. Poshshaxon kichik mittini nazardan qochirgani natijasida u katta ta’sir ko‘rsatganini ifodalash uchun “Kichkina mitti, xon xo‘jani yiqitdi” maqolini ishlataladi.

*“Chorasiz dard yo‘q”* [145.b.]

Xalqning hayotga bo‘lgan optimistik qarashini aks ettiruvchi maqol bo‘lib, har qanday muammoning yechimi borligini ta’kidlaydi. Adabiy matnda bu kabi maqollar inson ruhiy holatini ochib berishga xizmat qiladi. Asarda bu maqol Miryoqub davlat boshqaruvidagi inqirozni tahvil qilar ekan, har qanday muammoga yechim topish mumkinligini ta’kidlaydi. U “Chorasiz dard yo‘q” maqolini keltirib, eng og‘ir vaziyatlarda ham yechim topish insonning qo‘lida ekanligini bildiradi. To‘ra esa bunga Shubha bilan qarab, davlat tizimining inqirozi oldida amaldorlarning ojizligini ta’kidlaydi.

*“O‘lim bilan ishqdan boshqa hamma dardning chorasi bor”* [145.b.]

Ushbu maqol inson hayotida yechimi topilmaydigan faqat ikki narsa – o‘lim va ishq ekanligini bildiradi. Asarda bu maqol Miryoqub va To‘ra o‘rtasidagi bahsda qo‘llaniladi. Miryoqub

davlatning o‘g‘ir ahvolini muhokama qilar ekan, har qanday muammoga yechim topish mumkinligini ta’kidlaydi. U bu maqol orqali inson o‘lim va muhabbat oldida ojiz, lekin boshqa barcha masalalarda chora topish mumkinligini bildiradi. To‘ra esa bunga ishonmay, mavjud siyosiy inqirozni hal bo‘masligini aytadi.

“Ertaning g‘amini eshak yeydi” [146.b.]

Kelajak haqida ortiqcha qayg‘urishning foydasi yo‘qligini ta’kidlovchi maqol bo‘lib, real hayotga mos qarash ifodalangan. O‘zbek mentalitetida ertangi kun umid bilan bog‘liq ekanligi bu maqolda yaqqol ko‘rinadi. Asarda bu maqol To‘ra va Miryoqubning davlatchilik masalalariga oid suhbatidaqo‘llaniladi. Miryoqub kelajak haqida haddan tashqari tashvishlanmaslik kerakligini aytib, To‘rani tinchlantirish uchun bu maqolini ishlataladi. U hayotda muammolar o‘z yo‘li bilan hal bo‘ilishiga ishonadi, To‘ra esa bunday yondashuvga Shubha bilan qaraydi va kelajak haqida qayg‘urish mumkinligini ta’kidlaydi.

“Eshagiga yarasha tushovi” [155.b.]

Ushbu maqol insonning mavqeい va sharoitiga yarasha muomala qilinishi kerakligini bildiradi. Asarda bu maqol Miryoqubning imperiya haqidagi mulohazalari chog‘ida qo‘llaniladi. U podshoning hokimiyatini, davlatning ahvolini tahlil qilar ekan, imperianing botishini tushunib yetadi. Miryoqub podshoning qadr-qimmati va mavqeい pasayib borayotganini, boshqaruв tizimi ham shunga yarasha zaaiflashayotganini anglab, bu orqali u har bir narsa o‘z egasiga yarasha ekanligini ta’kidlaydi.

“Bilgan bilmagandan yaxshi” [198.b.]

Bu maqol bilim va maaa‘rifatning inson hayotidagi o‘rnini ta’kidlaydi. Asarda bu maqol Jakobning jadidlar va ularning g‘oyalari haqidagi mulohazalari chog‘ida qo‘llaniladi. U jadidlarning yangicha qarashlari va an‘anaviy tafakkur o‘rtasida ikkilanib qoladi. O‘zining ota-bobolari yurgan yo‘ldan borishni yoki jadidlar targ‘ib qilayotgan yangicha tafakkurni qabul qilishni hal qila olmaydi. Shu sababli, u bilim izlashga, Gazeta va kitoblarni o‘qishga qaror qiladi va inson bilimsizlikdaaaan ko‘ra ko‘proq ma‘lumotga ega bo‘lishi mumkinligini anglaydi.

“Tashi yaltiroq, ichi qaltiroq” [208.b..]

Bu maqol insonning tashqi ko‘rinishi bilan ichki kmohiyati har doim mos kelavermasligini ifodalaydi. Asarda bu maqol Poshshaxonning Zebixonning birdaniga o‘zgarib, samimiylik namoyon qilganiga Shubha bilan qarashi chog‘ida qo‘llaniladi. U Zebixonning kutilmaganda do‘stona va quvnoq kayfiyatda kelishidan hayratga tushadi va bunday o‘zgarish ortida qandaydir yashirin maqsad borligidan xavotirlanadi. Ushbu maqol orqali inson har doim tashqi ko‘rinishiga qarab baholanmasligi kerakligi va uning ichki dunyosi sirli bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi.

“Og‘zi qiyshiq bo‘lsa ham boyning o‘g‘li gapirsin” [251.b.]

Ushbu maqol jamiyatda boylik va mavqening so‘z erkinligiga qanday ta’sir qilishi haqida keskin kinoya bilan aytildi. Asrda bu maqol Mamaturdining mojaroni hal etish jarayonida qo‘llaniladi. U jamiyatda kimning so‘zi o‘tishi boylik va mavqe bilan bog‘liqekanligini ta’kidlaydi. Bu orqali u jamiyatdagi ijtimoiyadolatsizlik va boylarning so‘zining har doim ustun kelishi haqidagi fikrni ifodalaydi.

“Bir o‘q bilan ikki qushni ag‘darmoq” [257.b.]

Bitta harakat yoki imkoniyat bilan ikki maqsadga erishish, ikki muammoni hal qilish demakdir. Cho‘lponning asarida Poshshaxon Zebixonning yo‘q bo‘lishini istab, shu bilan birga o‘z mavqeini mustahkamlashni rejorashtirganda qo‘llaniladi.

“O‘rgangan ko‘ngil o‘rtansa qo‘ymas” [280.b.]

Berilgan ushbu maqol inson biror narsaga o‘rganib qolsa, undan voz kechishi qiyin bo‘ladi degan ma‘noni bildiradi. Cho‘lpon o‘z asarida bu maqolini So‘fi Eshon boboning saxovatga emas, faqat olishga odatlanganligini tushuntirish uchun qo‘llaydi. U yillar davomida shakllangan xarakterini o‘zgartirishga harakat qilmaydi. Bu holat inson tabiatini va odatlarning qanchalik mustahkam ekanini ko‘rsatadi.

Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asarida ishlataligan maqollar o‘zbek xalqining boy ma‘naviy-madaniy merosini, xalq donishmandligi va hayotiy tajribalarini aks ettiradi. Ushbu

maqollar asarning badiiy-estetik qiymatini oshirish bilan birga, personajlarning xarakterini chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi. Maqollarning asardagi qo'llanilishi nafaqat ularning semantik va lingvistik jihatlarini yoritadi, balki ularning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini ham ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, maqollar asarda voqealar rivojini ta'sirchan tarzda yetkazish, qahramonlarning dunyoqarashi va ruhiy holatini tasvirlash vositasi sifatida muhim rol o'ynaydi. Shunday qilib, "Kecha va kunduz" asarida qo'llanilgan maqollar nafaqat matnni bezash, balki unin g'oyaviy yo'nalishini ham mustahkamlashga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Cho'lpon. Kecha va Kunduz. Ilm-ziyo-zakovat, Toshkent, 2019. – 287 bet.
2. Ergashov I. O'zbek tili leksikografiysi. Yangi asr avlodи, Toshkent, 2014. – 315 bet
3. Jo'rayev N. O'zbek xalq maqollarari va ularning lingvistik tahlili. Ma'naviyat, Toshkent 2013. – 310 bet.
4. Madarahimov N. Til va tafakkur. O'zbekiston Toshkent, 2010. – 206 bet.
5. Nurmonov A. Hozirgi o'zbek adabiy tili sintaksisi. Fan, Toshkent, 1995. – 320 bet.
6. Rashidov N. O'zbek tilida maqollar va ularning semantik xususiyatlari. O'zbekiston Toshkent, 2010. – 270 bet.
7. Xo'jamqulov U. Qiyosiy tilshunoslik asoslari. O'zbekiston, Toshkent, 2015. – 295 bet.
8. G'afurov A. O'zbek tilining frazeologik birliklari. Fan, Toshkent, 1995. – 280 bet.